Ko‘chkunchixon



Ko‘chkunchixon ibn Abulxayrxon (ko‘chim)

(?-1530-y.)

(1510-1530)

Shayboniylar sulolasidan bo‘lgan xon. ***Abulxayrxon*** va ***Robiya Sultonbegim*** (Ulug‘bek mirzoning qizi)ning farzandi, Shayboniyxonning amakisi. Shayboniyxon tomonidan Turkiston viloyati hokimi etib tayinlangan(1503-1509-y.). Movorounnahr xoni (1510-1530-y.). Shayboniylarning Movarounnahrni bosib olish uchun qilgan yurishlarida faol ishtirok etgan. 1512 yil 28-apreldagi jangda shayboniylar Bobur bilan uning ittifoqchisi safaviylar qo‘shinini tor-mor qilib, Samarqand taxtini qo‘lga kiritdilar va Ko‘chkunchixon hukmronligi qayta tiklandi. Uning davrida Shayboniylar Safaviylar bilan urushib, ikki marta (1513/14:1529-y.) Hirotni egallaganlar, Bobur saltanati poytaxti Agra shahriga elchilar yuborilgan. Elchilar Bobur tomonidan tuhfalar bilan kutib olingan. Ko‘chkunchixon nomi tarixda xongina emas, adabiyot, fan va madaniyat homiysi sifatida ham qolgan. Uning davrida ko‘p asarlarni o‘zbek yiliga tarjima qilish bobida katta ishlar qilingan: fors tilidan o‘zbek tiliga Rashiduddinning *,, Jome at-tavorix”*, Sharafuddin Ali Yazdiyning *,,Zafarnoma”* asarlari tarjima qilingan, Buxoroda Abdulazizxon kutubxonasi ochilgan, masjid, madrasa, xonaqohlar ta’mirlangan.

2023-10-30 00:20:42